



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-martida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 908,0 mld. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 2 547,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish


	Mld. so'm		2019-yil yanvar-martiga nisbatan % da
	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	
I. YaHM	4 298,8	4 908,0	105,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 838,5	4 605,3	105,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	460,3	302,7	105,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 838,5	4 605,3	105,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	970,9	1 254,9	104,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 312,1	1 462,9	107,0
sanoat	980,5	1 054,8	105,6
qurilish	331,6	408,1	111,4
Xizmatlar	1 555,5	1 887,5	103,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	389,6	461,3	102,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	326,5	368,2	103,3
boshqa xizmat tarmoqlari	839,4	1 058,0	103,6



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'iда 104,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi 27,2 %), sanoatda 105,6 % (22,9 %), qurilishda 111,4 % (8,9 %) va xizmatlar sohasida 103,4 % (41,0 %) ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar – mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylashtirilganda 93,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,2 % ni tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,9 % punktga oshdi va hisobot davrida 27,2 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'inining ulushi 2,3 % punktga kamaydi va 31,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 41,0 % ni tashkil etdi va 2019-yilning mos davri (40,6 %) bilan taqqoslaganda 0,4 % punktga ko'paydi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart




- Mahsulotlarga so'lqliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,0 % ni (2019-yil yanvar-mart – 10,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 8,0 % ni (8,5 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 23,0 % ni (21,9 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar